



№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 458 sahifa,
2-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlar mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatrovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики	137
<i>Каримбаев Ниятбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	
Инклюзивное образование в Республике Узбекистан: сравнение с мировым опытом	144
<i>Пирманова Бахора Эшмухаммадовна</i>	
Inklyuziv ta'lim jarayonida empatiya va rahm-shafqatning pedagogik ahamiyati	148
<i>Olimova Sarvara Sobitxon qizi</i>	
Bo'lajak defektologlarni oila bilan ishlashga tayyorlashning nazariy asoslari	152
<i>M. B. Muxtorova</i>	
Maktabgacha yoshdagi eshitishida nuqsoni bor bolalarni talaffuzga o'rgatish metodlari	156
<i>Bo'ronova Suksoraxon Behzodjon qizi</i>	
The Role of Identity, Motivation, and Investment in Teaching English at School (Experimental Study)	160
<i>Shahobova Sitara Baxromovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayonining zamonaviy ta'lim paradigmasiga mos pedagogik modeli	166
<i>Olimova Dilrabo Nurali qizi</i>	
Raqamli transformatsiya sharoitida tikuvchilik va dizayn ta'limida innovatsion pedagogik yondashuvlar asosida talabalar kasbiy kompetentligini rivojlantirish muammolari va istiqbollari	169
<i>Umarova Fotima Abduraximovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamonaviy darsliklardan samarali foydalanishga o'rgatishning interaktiv metodlari	172
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Iqtisodiy ixtisoslik talabalari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish: rus tili fanini o'qitishda	176
<i>Nuraliyeva Maftuna G'ulomovna</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini rivojlantirish bosqichlari	182
<i>Xidirova Nodira Abduganiyevna</i>	
Maktabgacha ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda pedagogning kompetensiyasi	185
<i>Eshmuratova Gauxar Maxsudovna</i>	
Frazeologik birliklar identifikatsiyasi	188
<i>Omadjon Azamov Burxonovich</i>	

O'smirlik davrida empatiya rivojlanishiga ijtimoiy tarmoqlar va virtual muloqotning ta'siri	192
Qodirova Zebuniso Malikovna	
Pedagogical Mechanisms for Enhancing the Competitiveness of Higher Education Services in the Context of Socio-Economic Globalization	197
Babayeva Lola Ibragimovna	
Integrativ yondashuv asosida talaba qizlarda jismoniy madaniyatni rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirishning dolzarbligi	202
M. X. To'xtamishева	
Murakkab nuqsonli bolalarni umumta'lim maktablariga tayyorlash jarayonida logopedning kommunikativ malakasini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari.....	207
Abdubokiyeva Adiba Baxodir qizi	
Oliy ta'limda mustaqil ta'lim mazmunini kognitiv kompetensiyalarga yo'naltirib tashkil etish	211
Adashova Guljaxon Muxammadjonovna	
STEAM yondashuvi asosida tayyorlov guruh bolalarining bilish faoliyatini faollashtirishning samarali yo'llari	215
G. B. Maxmudova	
Bo'lajak oligofreno-pedagoglarning kompetentlik faoliyatini tashkil etishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari	219
Jumaboyev Nurillo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt asosida ta'lim sifatini monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish	223
Jumanazarova G. U.	
Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda duduqlanishni o'yin asosida bartaraf etish texnologiyalari	227
Jumanazarova Gullola Yoqubjanovna, Mamatqulova Sarbarxon Axmadjon qizi	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	230
Kayumova Nargiza Mirziyatovna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi	
Sharq va G'arb mutafakkirlari merosida shaxs tarbiyasi masalalari	233
Mirabzalova Zaxro Shuhrat qizi	
Oliy ta'limda talabalarning o'z-o'zini personallashtirishini tashkil qilish	238
Shamsiddinova Adiba Muzaffar qizi	
Формирование интеллектуальных умений детей старшего дошкольного возраста в условиях цифровой образовательной среды	242
Скрыльников Юрий Степанович	
Динамика становления профессионально значимых личностных качеств будущих педагогов.....	246
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Hamid Olimjon ijodining shakllanishidagi manbalar va ijodiy omillar.....	250
U. A. Jumanazarov	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari moslashuvining psixologik yondashuvi	254
G. R. Ibragimova, Abdulkarimova Dilfuza	
Tarixiy obidalar asosida tasviriy san'at talabalari ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	258
Qurvanboyeva Diyora Muzaffar qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda sotsial intellekt va shaxslilik kamolotning o'zaro bog'liqligi	262
Avlayev Orif Umirovich	
AR texnologiyasi asosida kompyuter arxitekturasini o'qitishni takomillashtirishning pedagogik asoslari....	267
Saidkarimxonova Dilnozaxon Saidazizxon qizi	
Sun'iy intellektning ixtisoslashgan ta'lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash sifatini oshirishdagi o'rni	273
Ubbiyev Alisher Tairovich	
Inklyuziv ta'lim bo'yicha respublikada olib borilayotgan faoliyat	277
Sattorova Mohira Aminqulovna	
Tasviriy faoliyat jarayonida maktabgacha tayyorlov guruh bolalarida emotsional intellektni shakllantirish .	281
Namzabayeva Lola Zakirovna, Malikova Umida Nurliboy qizi	
Sport maktablarida 12–14 yoshli gandbolchilarda to'pni ilish va uzatish texnikasini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish	285
Ismatullayeva Fotima Rustam qizi	



Методология изучения этнопсихологических аспектов понимания долга перед родителями: цели, задачи и гипотезы исследования	289
Эргашев П. С., Азимова Х. А.	
Uzluksiz ta'lim tizimida metakompetensiyalarni rivojlantirish strategiyalari va ularning tasnifi	292
Xurramov Anvar Jumanazarovich	
Fundirlash konsepsiyasi – kelajak pedagoglarining asosiy poydevori	296
G'oyimov Umar Eshmurodovich	
Pedagogik oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan metodik ta'minotning hozirgi holati: tahliliy o'rganish	301
Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna	
Pedagogik metod: intellekt xaritalar yordamida lazerlarning amaliyotda qo'llanilish sohalarini vizuallashtirish	307
Olimjonova Nigina Sobirjon qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti guruhlarida rivojlanish markazlarini tashkil etish	312
G. R. Ibragimova, Normamatova Rayhona Alisher qizi	
Pedagogik o'yinlar va interaktiv faoliyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rni	317
Qodirova Sevara Shuxratovna	
Shaxs psixikasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar	325
Boboyeva Maxsuda Ataxonovna, Rajapboyeva Ozoda Shuxrat qizi, Karimova Malohat O'rinboy qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning sifat samaradorligi	329
Hasanova Dilnora Rustam qizi, Ehnazarov Jo'raqul	
Integratsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirishning metodik tizimi	333
Boynazarova Munajat	
O'yin faoliyati orqali kasbga yo'naltirish mexanizmlari	337
Allaberdiyeva Kumri Xamrayevna, Toshmurodova Marjona	
Модель методического сопровождения педагогов доо в развитии математической грамотности и логического мышления старших дошкольников на основе игровых технологий	340
Гаухар Джанпеисова	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining baholash malakasini rivojlantirish muammolari va imkoniyatlari	347
Majidova Hilola Eshquvat qizi	
Формирование коммуникативной компетенции студентов на занятиях узбекского и иностранных языков: интегративный подход	351
Турланова Сауле Дадажановна	
Ta'lim jarayonida digital storytelling metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning ijodiy yozuv kompetensiyasini shakllantirish	357
Maxsetova Zuxra Torebayevna	
Futbol mashg'ulotlarida kreativ yondashuvlarni qo'llash amaliyoti	361
Karimov Odiljon Baxadirovich	
Oliy ta'limda talabalarining kreativligini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari (amaliy matematika yo'nalishi misolida)	364
Samatova Munira Dilshod qizi	
Подготовка к школе как условие развития коммуникативных умений у детей дошкольного возраста с тяжёлыми нарушениями речи	368
Ахмедова З. М., Абдурахмонова М. А.	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirishga talaba motivatsiyaviy-qadriyatli munosabatlari tizimi shakllanganligi darajalari va ularning sifatiy tavsifi	373
Ergasheva Matluba Burxonovna	
Ritmik va ijodiy gimnastika mashqlari orqali bolalarda estetik didni shakllantirish metodlari	378
Kamchiyev Salimberdi Xudayberdiyevich	

Interaktiv ta'lim platformalari asosida informatika va axborot texnologiyalari faniga oid kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi.....	382
Karimov Feruz Raimovich	
Koxlear implantli bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda qo'llaniladigan zamonaviy usullar	386
Mamasiddikova Maftuna Akbarjon qizi	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining media savodxonligini oshirishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari.....	389
Masharibova Lobar Rayimberganovna	
Duduqlanuvchi bolalarda verbal muloqot ko'nikmalarini o'yin texnologiyalari asosida rivojlantirish.....	393
Mirtoeva Shohruza Ibjohimjon qizi	
Maktab voleybol sport to'garaklari mashg'ulotlarida harakatli o'yinlardan foydalanish	396
Ortug'mat Jumanov, Zarina Abdusattarova	
Talabalar mustaqil ta'limini samarali tashkil etish omillari va mexanizmlari.....	400
Raxmatova Nargiza Dolibayevna	
Bola nutqining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi salbiy va ijobiy muhit omillari. XXI asr taraqqiyotida nutq faoliyatining shakllanishi.....	403
Ro'ziyeva Nozimaxon Oybek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ijodkorligini ijtimoiy-pedagogik faoliyatda rivojlantirish texnologiyasi.....	406
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Butayeva Gavhar Xudoyorovna	
Fan va tabiatni tanishtirish orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarni rivojlantirish usullari	410
Sh. T. Musulmonova	
15-17 yoshgacha bo'lgan kurashchilarni yillik yuklamalarini taqsimlash	413
Qirgiboyev Shaxbozbek Aslidin o'gli, Xamidjonov Muhammadbobir Ulug'bek o'gli	
Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....	416
Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li	
O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri	419
Toshpo'latova O'giloy Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni shaxsiy rivojlantirish.....	422
Turdiyeva Raxima Kurbanovna	
Matnli topshiriqlar vositasida ona tili darslarida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish	426
Yulbarsov Ochilbek Obidjon o'g'li, Isayeva Gulnur Shakirjanovna	
Методы исследования сенсомоторных эффектов и внимания у детей дошкольного возраста.....	432
Г. С. Алиходжаева	
Роль театрализованной деятельности в формировании представлений о родине у дошкольников .	436
Г. С. Алиходжаева, У. О. Мамадалиева	
Логическое мышление детей 5–7 лет в вариативном дошкольном образовании: нормативные основания и концептуальная модель	440
Г. Э. Джанпеисова, В. В. Горбунова, Э. З. Убайдуллаева	
O'qitishning maqsad va vazifalarini talabalarning bo'lajak pedagogik faoliyatini modellashtirish sifatida ...	444
Murodova Umida Dilmurodovna	
Развитие прагматической компетенции аудирования с помощью инновационных технологий в обучении немецкому языку	449
Саидова Махсудахон Аббасовна	
Развитие профессиональной подготовки будущих воспитателей в системе высшего педагогического образования.....	452
Собирова Пошшаой Эркин кизи	
Современные педагогические концепции и структурные элементы игровых технологий.....	455
Хафизова Машхура Аминовна	



JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING SIFAT SAMARADORLIGI

Hasanova Dilmora Rustam qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti magistranti

Ehnazarov Jo'raqul

Samarqand davlat pedagogika instituti professori

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada umumta'lim maktablarining 5–6-sinflarida jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ta'lim sifati va samaradorligiga ta'siri kompleks ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda innovatsion pedagogik texnologiyalarning turlari, ularning didaktik imkoniyatlari, yosh xususiyatlariga mosligi hamda o'quvchilarning jismoniy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Olingan natijalar innovatsion yondashuvlar o'quvchilarning jismoniy faolligi, motivatsiyasi, dars samaradorligi hamda sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabatini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, ta'lim sifati, samaradorlik, 5–6-sinf o'quvchilari.

Abstract: This scientific article presents a comprehensive analysis of the impact of using innovative pedagogical technologies on the quality and effectiveness of education in physical education classes for 5–6th-grade students in secondary schools. The study examines the types of innovative pedagogical technologies, their didactic potential, their suitability to students' age characteristics, and their influence on physical, psychological, and social development. The results indicate that innovative approaches significantly increase students' physical activity, learning motivation, lesson effectiveness, and their positive attitude toward a healthy lifestyle.

Key words: physical education, innovative pedagogical technologies, interactive methods, quality of education, efficiency, 5–6th-grade students.

Аннотация: В данной научной статье представлен комплексный научный анализ влияния использования инновационных педагогических технологий на качество и эффективность обучения на уроках физической культуры в 5–6-классах общеобразовательных школ. В исследовании рассматриваются виды инновационных педагогических технологий, их дидактические возможности, соответствие возрастным особенностям учащихся, а также влияние на физическое, психологическое и социальное развитие школьников. Полученные результаты показывают, что инновационные подходы значительно повышают физическую активность учащихся, их учебную мотивацию, эффективность уроков и формируют положительное отношение к здоровому образу жизни.

Ключевые слова: физическое воспитание, инновационные педагогические технологии, интерактивные методы, качество образования, эффективность, учащиеся 5–6-классов.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri – ta'lim sifatini oshirish va uni zamon talablariga moslashtirishdir. Ushbu jarayonda jismoniy tarbiya fani alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u o'quvchilarning nafaqat jismoniy rivojlanishini, balki sog'lom turmush tarziga bo'lgan ongli munosabatini ham shakllantiradi.

Zamonaviy pedagogika jismoniy tarbiya darslarini faqat mashqlar majmui sifatida emas, balki shaxsni har tomonlama rivojlantiruvchi pedagogik jarayon sifatida qaraydi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion pedagogik texnologiyalar jismoniy tarbiya darslarining mazmunini boyitish, ularni samarali va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi ^[1, 2].

5–6-sinf o'quvchilari jismoniy rivojlanishning faol bosqichida bo'lib, bu davrda ularning harakat faolligi yuqori, yangi faoliyat turlariga qiziqishi kuchli bo'ladi. Agar mazkur yosh davrida jismoniy tarbiya darslari innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etilsa, o'quvchilarda sportga, jismoniy mashqlarga va sog'lom turmush tarziga nisbatan barqaror ijobiy munosabat shakllanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, amaliyotda jismoniy tarbiya darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi yetarli emas, mavjud imkoniyatlar esa to'liq ishga solinmayapti. Shu bois mazkur maqola ilmiy asoslangan tahlillar orqali ushbu muammoni yoritishga qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi – 5–6-sinf jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishning sifat samaradorligini aniqlash va asoslash.

Tadqiqot vazifalari:

- innovatsion pedagogik texnologiyalar tushunchasining mohiyatini ochib berish;
- jismoniy tarbiya darslarida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni tasniflash;
- 5–6-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari asosida samaradorlik mezonlarini aniqlash;
- innovatsion texnologiyalarning ta'lim sifati va natijadorligiga ta'sirini ilmiy jihatdan asoslash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi pedagogika va sport pedagogikasi sohasida keng o'rganilgan. N. Abdullaeva o'zining “Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” asarida jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligi o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan pedagogik yondashuvlarga bog'liqligini ta'kidlaydi. Muallif jismoniy mashg'ulotlarni tashkil etishda zamonaviy metodlar, o'yin faoliyati va interfaol usullar o'quvchilarning jismoniy sifatlari bilan bir qatorda ularning motivatsiyasi va sog'lom turmush tarziga bo'lgan munosabatini ham rivojlantirishini ilmiy asoslab beradi. Shu jihatdan jismoniy tarbiya darslarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim sharti sifatida qaraladi.

Pedagogik texnologiyalar nazariyasi masalalari M. V. Klarin hamda G. K. Selevko tadqiqotlarida chuqur yoritilgan. Klarin 2018-yilda nashr etilgan “Innovatsion pedagogik texnologiyalar” asarida ta'lim jarayonida innovatsiyalarni joriy etish o'quvchi shaxsini rivojlantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish va ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

Selevko esa 2017-yilda chop etilgan “Zamonaviy ta'lim texnologiyalari” asarida innovatsion ta'lim texnologiyalarining tasnifi, ularning didaktik imkoniyatlari hamda shaxsga yo'naltirilgan ta'limdagi ahamiyatini ilmiy asoslab beradi.

E. S. Polatning 2016-yilda chop etilgan “Interfaol ta'lim texnologiyalari” asarida esa interfaol metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, hamkorlikda o'rganish muhitini yaratish hamda ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita ekanligi ta'kidlanadi.

Sport pedagogikasi sohasida L. P. Matveev va B. A. Ashmarin tadqiqotlari jismoniy tarbiya metodikasining nazariy asoslarini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Matveyev 2015-yilda chop etilgan “Jismoniy tarbiya nazariyasi” asarida jismoniy tarbiya jarayonini ilmiy asosda tashkil etish o'quvchilarning jismoniy sifatlari rivojlantirishda hal qiluvchi omil ekanligini ko'rsatadi.

Ashmarin esa 2014-yilda nashr etilgan “Jismoniy tarbiya pedagogikasi” asarida jismoniy tarbiya darslarida pedagogik yondashuvlar, metodlar va vositalarning uyg'un qo'llanishi ta'lim samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan UNESCO 2015-yildagi “Quality Physical Education Guidelines” hamda WHO 2018-yildagi “Global Action Plan on Physical Activity” hujjatlarida ham jismoniy tarbiya darslarida innovatsion yondashuvlar, faol o'qitish metodlari va sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan pedagogik strategiyalarning muhimligi alohida qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot kompleks metodologik yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqotda pedagogik nazariya va amaliyotni uyg'unlashtiruvchi metodlar qo'llanildi. Asosiy metodlar quyidagilardan iborat:

- nazariy tahlil metodi – jismoniy tarbiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha ilmiy manbalarni o'rganish;
- tizimli yondashuv – jismoniy tarbiya darsini yaxlit pedagogik tizim sifatida tahlil qilish;



- taqqoslash metodi – an'anaviy va innovatsion usullar asosida tashkil etilgan darslar samaradorligini solishtirish;
- pedagogik kuzatuv – o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, ishtiroki va qiziqishini baholash;
- pedagogik tahlil – o'quvchilarning jismoniy sifatlari (tezkorlik, chidamlilik, koordinatsiya) rivojlanishidagi o'zgarishlarni tahlil qilish.

Tadqiqot umumta'lim maktablarining 5–6-sinflarida jismoniy tarbiya darslari misolida nazariy-amaliy asosda olib borildi [3, 4].

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning jismoniy va psixologik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aniqlangan asosiy natijalar quyidagilardan iborat: birinchidan, o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasi sezilarli darajada oshdi. Interfaol o'yinlar, musobaqaviy mashqlar va guruhli faoliyatlar o'quvchilarning qiziqishini kuchaytirdi. Ikkinchidan, jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasi yaxshilandi. Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchilarning tezkorlik, muvozanat va harakat koordinatsiyasi ko'rsatkichlari oshdi. Uchinchidan, ijtimoiy-psixologik muhit yaxshilandi. Guruhli mashqlar va hamkorlikka asoslangan topshiriqlar jamoaviylik, o'zaro yordam va sog'lom raqobatni rivojlantirdi. To'rtinchidan, darsning sifat samaradorligi oshdi, ya'ni dars vaqtidan unumli foydalanish, mashqlarni to'g'ri bajarish va xavfsizlik qoidalariga rioya etish darajasi yaxshilandi.

Muhokama. Olingan natijalar pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, innovatsion pedagogik texnologiyalar jismoniy tarbiya darslarining didaktik imkoniyatlarini kengaytirishini ko'rsatadi. An'anaviy yondashuvlarda o'quvchi ko'pincha passiv ijrochi bo'lsa, innovatsion texnologiyalar uni faol subyektga aylantiradi. Muhokama jarayonida shuni ta'kidlash joizki, innovatsion texnologiyalar samaradorligi bevosita o'qituvchining metodik tayyorgarligiga bog'liq. Texnologiyalarni yosh xususiyatlariga moslashtirish, xavfsizlikni ta'minlash va dars maqsadini aniq belgilash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, 5–6-sinf o'quvchilari uchun innovatsion texnologiyalar o'yin xarakteriga ega bo'lishi, musobaqaviy ruhni kuchaytirishi va ijobiy emotsional muhit yaratishi zarur [5, 6].

Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalasini chuqur anglash uchun, avvalo, "innovatsiya" va "pedagogik texnologiya" tushunchalarining ilmiy mohiyatini ochib berish lozim. Pedagogik adabiyotlarda innovatsiya ta'lim jarayoniga yangi g'oya, usul yoki vositalarni kiritish orqali uning samaradorligini oshirish jarayoni sifatida talqin etiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalar an'anaviy o'qitishdan farqli ravishda o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida ko'radi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni ta'minlaydi hamda o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi.

Jismoniy tarbiya fanida innovatsion texnologiyalar jismoniy mashqlarni bajarish jarayonini qiziqarli, xavfsiz va samarali tashkil etish imkonini beradi. Ayniqsa, 5–6-sinflar uchun mo'ljallangan darslarda innovatsion yondashuvlar o'yin, musobaqa va interfaol faoliyat bilan uyg'unlashgan bo'lishi muhimdir. Nazariy jihatdan qaralganda, innovatsion pedagogik texnologiyalar quyidagi yondashuvlarga tayanadi:

- kompetensiyaviy yondashuv – o'quvchining hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirish;
- faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – harakat orqali o'rganish;
- shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – individual imkoniyatlarni hisobga olish.

Jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni bir nechta asosiy guruhlariga ajratish mumkin. Interfaol o'yinlar 5–6-sinf o'quvchilari uchun eng samarali texnologiya hisoblanadi. Bu texnologiya darsga qiziqishni oshiradi, harakat faolligini kuchaytiradi hamda emotsional muhitni ijobiylashtiradi. Masalan, estafeta o'yinlari, jamoaviy musobaqalar va harakatli o'yinlar o'quvchilarning tezkorlik, chaqqonlik hamda jamoaviylik sifatlarini rivojlantiradi.

Zamonaviy jismoniy tarbiya darslarida video namoyishlar, animatsion mashqlar va raqamli platformalardan foydalanish mashqlarni to'g'ri bajarishga yordam beradi. AKT vositalari harakatlarni vizual tushunishni osonlashtiradi, xatolarni kamaytiradi hamda o'quvchilarning mustaqil mashq qilishini rag'batlantiradi. Musobaqaviy yondashuv o'quvchilarda sog'lom raqobatni shakllantiradi, g'alabaga intilishni kuchaytiradi, iroda va bardoshlilikni rivojlantiradi hamda jismoniy yuklamani tabiiy ravishda oshiradi.

5–6-sinflarda o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlari turlicha bo'lganligi sababli differensial yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiya orqali har bir o'quvchi o'z imkoniyatiga mos yuklama oladi, jarohatlarni xavfi kamayadi hamda o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchi oshadi [7, 8].

Innovatsion pedagogik texnologiyalarning sifat samaradorligini aniqlash uchun aniq baholash mezonlari zarur. Tadqiqot davomida quyidagi mezonlar asosiy deb belgilandi:

- motivatsion mezon – o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi va ishtiroki;
- jismoniy mezon – tezkorlik, chidamlilik, muvozanat va koordinatsiya ko'rsatkichlari;
- psixologik mezon – o'quvchilarning emotsional holati va o'ziga bo'lgan ishonchi;
- ijtimoiy mezon – jamoada ishlash, o'zaro yordam va muloqot ko'nikmalari;
- pedagogik mezon – dars maqsadiga erishish darajasi va vaqt samaradorligi.

Mazkur mezonlar asosida innovatsion texnologiyalar jismoniy tarbiya darslarining umumiy sifatini sezilarli darajada oshirishi aniqlandi.

O'tkazilgan ilmiy tahlillar asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- jismoniy tarbiya darslarida har bir mavzuga mos innovatsion texnologiyani tanlash;
- 5–6-sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish;
- darslarda o'yin va musobaqa elementlarini ko'proq qo'llash;
- AKT vositalaridan me'yorida va maqsadli foydalanish;
- xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya etish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish 5–6-sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi, darsga qiziqishi hamda ta'lim sifati samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlar jismoniy tarbiya fanining ta'limiy, tarbiyaviy va sog'lomlashtiruvchi funksiyalarini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva N. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Klarin M. V. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Moskva: Pedagogika, 2018.
3. Selevko G. K. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Moskva: Narodnoe obrazovanie, 2017.
4. Polat E. S. Interfaol ta'lim texnologiyalari. – Moskva: Akademiya, 2016.
5. Matveev L. P. Jismoniy tarbiya nazariyasi. – Moskva: Sport, 2015.
6. Ashmarin B. A. Jismoniy tarbiya pedagogikasi. – Moskva: Prosveshchenie, 2014.
7. UNESCO. Quality Physical Education Guidelines. – Paris, 2015.
8. WHO. Global Action Plan on Physical Activity. – Geneva, 2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.